

**“ЎЗБЕКИСТОННИ ТОП ЎН ТУРИСТИК ҲУДУДЛАР
ҚАТОРИГА КИРИТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: БАРҚАРОР
РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИАТЛАРИ”**
мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий
анжуман материаллари тўплами
2020 йил 11-12 декабрь



**“PROSPECTS FOR UZBEKISTAN'S ENTRY INTO
THE TOP 10 TOURIST DESTINATIONS: SUSTAINABLE
DEVELOPMENT OPPORTUNITIES”**

collection of abstracts
December 11-12, 2020

**“ПЕРСПЕКТИВЫ ВХОЖДЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В
ДЕСЯТКУ ЛУЧШИХ ТУРИСТИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ:
ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”**

сборник тезисов
11-12 декабря 2020 года



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
“СЕРВИС СОҲАСИ ИҚТИСОДИЁТИ” ВА “ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА
ХЎЖАЛИГИ” КАФЕДРАЛАРИ**

**“ЎЗБЕКИСТОННИ ТОП ЎН ТУРИСТИК ҲУДУДЛАР
ҚАТОРИГА КИРИТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ: БАРҚАРОР
РИВОЖЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ”**

**мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий анжуман материаллари
тўплами
2020 йил 11-12 декабрь**

**“PROSPECTS FOR UZBEKISTAN'S ENTRY INTO THE TOP 10
TOURIST DESTINATIONS: SUSTAINABLE DEVELOPMENT
OPPORTUNITIES”**

**collection of abstracts
December 11-12, 2020**

**“ПЕРСПЕКТИВЫ ВХОЖДЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ДЕСЯТКУ
ЛУЧШИХ ТУРИСТИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ:
ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”**

**сборник тезисов
11-12 декабря 2020 года**

**“Дурдона” нашриёти
Бухоро – 2020**

Kiyamova M.	Buxoro folklor merosidan turizmi rivojlantirishda samarali foydalanish	79
Эвадуллаев Т.Ш.	Самарқандда зиёрат туризмини ривожланишида муқаддас қадамжоларнинг ўрни	81
Toyirova S.A. Choriyev R.N.	Turizmда turmahsulotning ahamiyati	84
Мўминов Х.И. Абдуллаева Х.	Ўзбекистонда туризмнинг янги йўналишларини шакллантириш	85
Мусоев Д. Г.	Анализ туристских потоков в историко-древнейших городов Узбекистана и их туристско-рекреационный потенциал	87
Исхакова С.А. Ибрагимова М.И.	Ўзбекистонда таълим туризмини ривожлантириш истикболлари	90
Kamolov X.Z.	O'zbekiston turizm sohasini diversifikatsiya qilishda madaniy meros obyektlarining roli	92
Abdullayev S.I. Muqumova H.I.	Ziyorat turizmi, uning xususiyatlari va funksiyalari	94
Рауфов Р.Н. Кулматова Л.С.	Рекреационный туризм Таджикистана	96
Макушина А. Ю.	Развитие туристической индустрии в республике Узбекистан	98
Allanazarov O.B. Matkarimov F.	Xorazm viloyatida agroturizm rivojlantirish imkoniyatlari	100
Талапова Н.Б. Исмоилова М.И.	Ўзбекистонда ёшлар туризмини ривожлантириш	102
Fozilova M.B.	Ekologik turizmi rivojlantirishning iqtisodiyotdagi o'rni	104
Болтаева М.Ш.	Бухоро вилоятида туризми ривожлантиришда табиий-иқтисодий салоҳиятдан самарали фойдаланиш ҳолати	106
Ashurova M.X. Fozilova M.B.	Turistik – rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik xususiyatlari	108
Собиров М. С.	Особенности территориального развития туризма и рекреации в долине Зеравшан	111
Солиев И. Бойтўраев О.	Ўзбекистонда рекреация ва туризм тармоғини ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари	112
Тажибаев Ш.М.	“Етти пир” туристик маршрутини ривожлантириш истикболлари	114
Yunusova S. Ahmadjanova M. A.	Gastronomik turizm turlari va Yevropa davlatlari andozalari	116
Саидова Ф.К.	Перспективы развития экологического туризма Узбекистана	117
Dilmonov Q.B.	Essential image of eco-tourism	119
Asadova A.O.	O'zbekistonda erkin turistik zonalarni rivojlantirishda mice turizm va boshqa turistik yo'nalishlardan foydalanishning o'ziga xos shakllari	120
3-ШҮБА. 3-СЕКЦИЯ. 3-SECTION.		
Barotova D. Yo.	O'zbekistonda “turistik qishloq”, “turistik mahalla”, “turistik ovul”larni rivojlantirish mexanizmlari	124
Жалилова Ч.З. Мухаммедов С.	Туризм ривожлантиришда туризм маҳалласининг роли (Ромитан тумани Кўрғон туризм маҳалласи мисолида)	126
Usmanova A.B.	Prospects for development of rural tourism in Uzbekistan	128
Нарзиев М.М.	Меҳмонхона кластерларини шакллантиришда “туристик маҳалла”ларнинг ўрни	130
Matjonov B.R., Qo'chqarov Sh.	O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning dolzarb masalalari	131
Усманова Р.	Оптимизация использования туристических ресурсов Кашкадарьинской области	133
Жумаев Х. Х.	Қашқадарё вилоятида туризм-рекреация инфратузилмасининг ривожланиши даражаси	135
Очилова Х.Ф.	Механизм формирования этнопарков в Узбекистане	137
Бекжанов Д.Й.	“Туристтик маҳалла” ларни ривожлантириш орқали туристик дестинация рақобатбардошлигини ошириш	139
Ollanazarov B. Matkarimov F.	O'zbekistonda agroturizmi rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlar modellaridan foydalanish	141
Мардонов Б.Б. Исхакова С.А.	Тарихий-маданий туризмнинг ривожланиш зарурияти	142
Xomidova M.Z.	Qashqadaryo viloyatida ekoturizmi rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	144

Барча соҳалар каби туризмни ривожлантириш ҳам аҳоли камбағаллигини қисқартиришга кўмак беради.. Пандемия шароитида бошқа соҳалар каби туризмни ривожлантириш имкониятлари ҳам чекланиб қолди. Дунё миқёсида туризм соҳаси қарийб 70 фоиз зарарга учради. Фикримизча, бунда туризм соҳаси турли субъектларининг роли турлича бўлади. Жумладан,

➤ Туризм соҳасида илмий-тадқиқот ишларига сарфланадиган харажатларни кўпайтириш;

➤ Туризм хизматлари кўрсатувчи корхона ва ташкилотларда юқори технологияли ишлаб чиқаришни ривожлантиришни рағбатлантириш, пандемия даврида ўз фаолиятини тўхтатган субъектларга имтиёзлар бериш орқали рағбатлантириш;

➤ вақтинча фойдаланилмаётган мулк имкониятларини ошириш мақсадида ижарага бериш хизматларини жорий этиш;

➤ интернет –саёҳат хизматларини ташкил этиш;

➤ Маданий мерос объектларини сақлаш, муҳофаза қилиш, шунинг билан бирга улардан иқтисодий фаолиятда самарали фойдаланиш бўйича қўлланмалар тайёрлаш ва тарқатиш;

➤ туризм соҳасида ишлаётганларнинг ярмидан кўпи 25 ёшгача бўлганлардан иборат. Бу ўз эса ўз навбатида олий ва ўрта-махсус таълим, малака ошириш курслари, тренинглари, касбий маҳорат марказлари хизматларига бўлган талабни ошириб боради. Пандемия даврида масофавий таълимнинг асосий таълим турига айланишини инобатга олиб, туристик ташкилот ва корхоналарда ишлашга тайёрлаш учун шахсларнинг масофавий тарзда ўқиши учун имконият яратиш мақсадида online-тайёрлов курсларини ташкил этиш, курсни муваффақиятли битирганларга сертификатлар тақдим этиш.

Юқоридагиларни инобатга олиб айтиш мумкинки, Ўзбекистонда аҳолининг камбағаллик ҳолатига тушиб қолиши ва бу ҳолатдан чиқишида туризмнинг роли катта.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Travel & Tourism Economic Impact 2016 Uzbekistan, ©2016 World Travel & Tourism Council.
- 2.Брашнов Д.Г. Основные индустрии гостеприимства. Учебное пособие. М.: «ФЛИНТА», 2013

SERVIS TIZIMI FAOLIYATINING MAMLAKATNING IJTIMOIIY - IQTISODIY HAYOTIDAGI ROLI

BuxDU, Ashurova Muborak Xayrulloevna

Bugun jamiyatimiz kundan – kunga yangicha qarash, yangicha fikrlash, yangicha hayot tarziga qarab intilar ekan, bunda cheksiz ehtiyojlarni qondirish uchun xizmat ko'rsatish va servis sohasining hissasi alohida ahamiyatga ega. Zero, mahsulot va tovar ishlab chiqarilar ekan, unga inson omili ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi va albatta, pirovard natijada ehiyojning yuqori darajada, sifatli va kafolatli qondirilishini ta'minlashda professional, o'z kasbining mohir ustalari tomonidan tezda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Xizmat ko'rsatuvchi shaxs ushbu faoliyatning sub'yekti bo'lib iste'molchida o'zgacha taassurot qondirilishini ta'minlaydi shu bilan birga jozibadorlik baxsh etadi.

Servis korxonalari iqtisodiy faoliyati moddiy ishlab chiqarish tashkilotlari faoliyatidan farq qiladi. Nomoddiy ishlab chiqarish sohasining taraqqiy etishida iqtisodiy ko'rsatkichlarni to'g'ri tahlil qilishning ahamiyati o'ziga xosdir. Rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega davlatlarda aynan servis sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyatini qo'llab – quvvatlash tizimi, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirish borasida qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish – xizmat ko'rsatuvchi firmalar ishini yanada yengillashtirishga va raqobatbardosh pirovard natijaga ega bo'lishlariga sababchi hisoblanadi. Shu sababdan ham xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish va baholash sohalarda uning ulushi oshib borayotganligidan dalolat beradi. Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda ham xizmatlar sohasining o'rni katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda servis tizimi faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyati davlat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Rivojlangan bozor iqtisodiyotli davlatlarda servis tizimi sohasiga yalpi ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'i to'g'ri keladi. Servis faoliyatini rivojlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirish, hamda aholining mehnat bandligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Masalan, 1997 yilda AQSHda xizmat sohasida mehnatga layoqatli aholining 72,0% , Italiya va Shveysariyada 60,5% , Rossiyada 50,0% band bo'lgan.

O'tgan asrning 80-yillar o'rtalariga kelib xizmat ko'rsatish sohasida ayrim noaniq holatlar vujudga keldi. Ya'ni aholining servis xizmatlariga ehtiyoji yuqori bo'lsada, ushbu turdagi xizmatlarga bo'lgan talab kamaya boshladi. Talabning kamayishi o'z navbatida xizmatlar narxlarining keskin darajada oshishiga olib keldi. Servis xizmatini amalga oshiruvchilarining o'zlari ham iste'molchilar talablarini to'liq qondira olmasliklarini yaxshi tushunar edilar. Bunday holatlarning vujudga kelish sabablaridan asosiylari, turli xil materiallarning yetishmasligi, xizmat ko'rsatish tizimi sohasi korxonalaridagi texnik xizmat ko'rsatish takomillashmagan va boshqa bir qator ob'ektiv sabablarning vujudga kelishi hisoblanadi.


Hozirgi sharoitda servis tizimi faoliyati va xizmatlarga bo'lgan talab birinchi navbatda sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi va aholi xarid qobiliyatining oshishiga bog'liqdir. Sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot servis tashkilotlari tomonidan ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarning ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqarish va savdoning rivojlanishi auditorlik, axborot, tibbiy va boshqa xizmat turlarini taqazo etadi. Ya'ni ishlab chiqarishning rivojlanishi servis tizimi faoliyatining rivojlanishiga turtki beradi va teskari, uning past darajasi servis tizimi faoliyatining ham taaluqli darajasini belgilaydi.

XX asrda servis tizimi inson faoliyatining keng qamrovli faoliyatiga aylandi. Hozirgi kunda sanoati rivojlangan davlatlarning 70% i dunyo xizmat bozorining qatnashchilari hisoblanadi.

Servis - bu inson faoliyatining alohida turidir. U mijozning ehtiyojini xizmatlar ko'rsatish orqali qondirishga qaratilgan. Ushbu ehtiyojlar alohida shaxslar, ijtimoiy guruhlar yoki tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Hozirgi sharoitda xizmat sohasi yoki servis tizimi faoliyatiga iqtisodiyotning bir qator yirik sektorlarini kiritish mumkin. Ular jumlasiga: savdo, moliya, transport, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish industriyasi va sport, shuningdek fan, ta'lim va boshqaruv sohasi kiradi. Lekin oxirgi uch soha faqat xizmat ko'rsatish bilan cheklanib qolmaydi.

Servis tushunchasini aniqlashda uchta muhim tushuncha ishlatiladi: faoliyat, talab, xizmat (1-rasm).



1-rasm. Servis tushunchasi (manba: Olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi)

Servis tizimi sohasiga quyidagi faoliyat turlarini kiritish mumkin:

- maishiy xizmatlar;
- yo'lovchi va yuk transporti xizmatlari, aloqa xizmatlari;
- turar joy-kommunal xizmatlari;
- ta'lim tizimi, madaniyat xizmatlari, turistik - ekskursiya xizmatlari:
- jismoniy tarbiya va sport xizmatlari, sanatoriya – sog'lomlashtirish xizmatlari:
- huquqiy xizmatlar.

Yuqorida qayd qilingan servis turlari ularni amalga oshirish sohalari bo'yicha tasniflashtiriladi. Lekin, servis tizimi faoliyatining mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun boshqacha tasniflashtirishga murojat qilish mumkin. Unda inson faoliyatining to'rt asosiy shakli asos bo'lgan: moddiy - qayta o'zgartirish, bilish, qimmatli-yo'naltirilgan va kommunikativ (muomala). Servis xizmatlari yuqorida qayd qilingan sohalarning har birida qo'llanilishi mumkin, lekin ularning har birida o'ziga xos xususiyatlar mavjud:

1. Moddiy - qayta o'zgartirish faoliyati - bu inson tomonidan tabiatni o'zgartirish, bizni o'rab turgan buyumlarni tashkil etish, shuningdek jamiyat va inson organizmini o'zgartirishdir. Bu sohadagi servis turli xildagi xizmatlarni o'z ichiga oladi, shu jumladan insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun yakka tartibdagi xizmatlarni ham. Masalan, maxsus buyurtmalar bo'yicha turli xildagi buyumlar va moslamalarni ishlab chiqish, tovarlarni tashish va texnik xizmatlar ko'rsatish.

Savdo sohasida servis sotuvdan oldingi (namoyish qilish, tovarlarni tekshirish va qadoqlash) va sotuvdan keyingi xizmatlarni oladi. U o'z ichiga kafolat davridagi va kafolat davridan keyingi xizmatlarni oladi. Kafolat davridan keyingi xizmatlar tovarlarni ekspluatatsiya qilishning barcha davrini o'z ichiga oladi. Tovardan foydalanuvchining ehtiyojlarini qondiruvchi bunday servis ishlab chiqarish jarayonining davomi bo'lib hisoblanadi va raqobat sharoitida tovarga bo'lgan talabni oshiradi, yangi sotuv bozorlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Moddiy faoliyat sohasiga insonning ayrim ehtiyojlarini qondirish ham kiradi. Bularga tibbiy xizmatlar, maishiy xizmatlar, ommaviy ovqatlanish xizmatlari, ta'lim xizmatlari (chunki ular insonni shaxs sifatida shakllantiradi, bilim va tajribaga ega bo'lish uchun sharoit yaratadi) kiradi.

2. Bilish faoliyati insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, bilim va kerakli ma'lumotni berishni talab qiladi. Ushbu turga ta'lim xizmatlari kiradi. Lekin ta'lim faqat ma'lumot berish bilan cheklanmaydi, balki o'z ichiga muomala, tarbiyalash, qandaydir faoliyat uchun kerakli bilimlarga ega bo'lish jarayonlarini ham oladi.

3. Faoliyatning qadriyatli - yo'naltirilgan shaklini ko'pchilik hollarda bilish faoliyati bilan almashtirishadilar. Lekin ular o'rtasida muhim farq mavjud. Bilishning vazifasi - mavjud tabiiy va ijtimoiy hodisalarni o'zgartirmasdan aks ettirish hisoblanadi. Qadriyatli - yo'naltirilgan faoliyatning vazifasi esa ushbu hodisalarning inson uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini belgilash hisoblanadi, ularga ma'lum munosabatlarni ishlab chiqish va ularga baho berish hisoblanadi. Ushbu baho albatta insonning o'ziga va u yashayotgan jamiyatning turiga bog'liqdir. Qadriyatlar tizimini (o'rab turgan atrof muhitdagi voqealar va holatlar baholanishlari) ma'naviyat, san'at, siyosiy faoliyat belgilab beradi. Fan esa odatda sub'ektiv baholashlardan xolos bo'lishga harakat qiladi, atrof muhitdagi qonuniyatlarni insonning xohish va istaklariga bog'liq bo'lmagan holda ob'ektiv ravishda yoritishga harakat qiladi.

Qadriyatli yo'naltirilgan faoliyat sohasida servis reklama, ekspertiza, psixodiagnostika, imidjmecker xizmatlari, badiiy - bezatish faoliyati, diniy tavsifdagi xizmatlar orqali amalga oshiriladi.

Reklama xizmatlari va bozordagi tovarni siljitishning barcha jarayonlarini iste'molchilarda mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimini o'zgartirishga harakat qilish deb tushunish mumkin. Oddiy holatda reklama alohida tovar va xizmatlarga talabni shakllantirishga harakat qiladi va u insonlar uchun qadriyatga ega ekanligiga ishoniradi.

Servis tizimi faoliyatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar:

Insonning tabiat va jamiyat tomonidan shakllantirilgan qirralari;

Iqtisodiyotning rivojlanish darajasi va xo'jalik tizimi;
Mavjud jamiyatda shakllangan ma'naviyat va madaniy an'analar;
Ijtimoiy strukturalar: davlat, siyosiy partiyalar.

Inson uchun u yoki bu turdagi servis tizimi faoliyatining ahamiyati shunga bog'liqlik, u qaysi ehtiyojlarni muhim deb hisoblaydi va uni birinchi navbatda qondirishga harakat qiladi.

Sanoatning taraqqiy etishi jarayonida servis tizimi faoliyatini rivojlantirishning uch davomiy bosqichini qamrab oladi:

1. Sanoatning rivojlanishi transport xizmatlari va umuman tovar harakati bilan bog'liq xizmatlarning keng tarqalishiga olib keladi.

2. Ne'matlarni ommaviy iste'mol qilish sharoitida taqsimot sohasining o'sishi boshlanadi (ulgurji va chakana savdo), moliyaviy xizmatlar, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, sug'urtalash kengaydi.

3. Ovqatlanish uchun sarflanadigan oilaviy daromad hissasi kamayadi. Bo'shagan mablag'larni aholi dastlab uzoq foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishga (kiyim - kechak, avtomobillar) va ko'chmas mulkka, keyinchalik esa qimmatbaho tovarlar xarid qilishga va dam olishga sarflaydi. Shu tariqa shaxsiy xizmatlar kengayadi. Ular jumlasiga restoranlar, mehmonxonalar, avtomobil ustaxonalari, sayohat, dam olish va sport industriyasi kabilar kiradi. Servis tizimi sohasining ikki fundamental sohasi bo'lmish sog'liq va ta'limga keskin qiziqish kuchayadi. Bularning barchasi xizmatlarning yangi turlarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, sanoati rivojlangan davlatlarda ijtimoiy, taqsimot va maishiy xizmat sohaslarida band bo'lganlar soni ortib bormoqda. Mutaxassislar prognoziga ko'ra XXI asr boshlarida ishlab chiqaruvchilarga xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi bilan bog'liq xizmatlar tez sur'atlar bilan o'sadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston sanoati rivojlangan davlatlardan eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblangan jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad, ish haqi miqdori, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi kabilar bo'yicha bir oz ortda qolmoqda. Bir tomondan, bu qolganlarga qaraganda servis iqtisodiyoti va postindustrial jamiyatning barcha xizmatlar sektorini kechroq tashkil etilishini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, bizda qolgan davlatlar tajribasiga suyangan holda servis tizimi faoliyatini maqsadli yo'naltirilgan holda rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА “ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – ЯНГИЧА ДУНЁҚАРАШ” МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАРҒИБОТ ТАДБИРЛАРИНИНГ ЎРНИ

Тошбоев З.М., Раҳматов Ғ.С.

Жиззах давлат педагогика институти

Бугунги кунда кишилар ўзларининг бўш вақтларида доимий турар жойларидан бошқа мамлакат ёки ўз мамлакатлари ичида таассурот ва дам олиш, соғлиқни тиклаш, меҳмондорчилик, билим олиш ёки касбий амалий мақсадларида саёҳат қилишлари ҳамда борган жойларида пул билан рағбатлантириладиган иш билан шуғулланмайдиган соҳа – туризм кенг ривожланиб бормоқда. Бу борада мамлакатимизнинг барча ҳудудларида кенг қамровли ислоҳотлар олиб борилиб, ҳар бир ҳудуднинг табиий-экологик, иқтисодий-ижтимоий ва тарихий-географик жиҳатларидан келиб чиққан ҳолда ушбу соҳани ривожлантирилмоқда. Бироқ юртимизнинг туристик салоҳиятини янада ошириш, айниқса, сайёҳларни мамлакатимизнинг энг чекка ҳудудларига ҳам жалб қилиш ҳали етарли даражада деб бўлмайди. Бунинг учун аввало мамлакатимизда ички туризмни ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга бўлиб, энг чекка ҳудудларга ҳам ташриф буюриб, у ерлардаги мавжуд туристик имкониятларни ўрганиш, тарғиб қилиш, бу соҳадаги муаммоларни бартараф қилиш чораларини ишлаб чиқиш лозим ҳисобланади.

Туризм соҳасини ривожлантириш бўйича бугунги кунда юртимизда олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар ҳам муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизда давлатимиз